

Pokiza Bekmurodova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: bekmurodovapokiza76@gmail.com*

TEATR SAHNA BEZAGI: BADIY TAFAKKUR VA DRAMATURGIK MAKON UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada teatr sahna bezagining badiiy-estetik va dramaturgik jarayondagi o'rni, uning tomosha mazmunini ochib berishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Sahna bezagi spektaklning g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi hamda rejissorlik konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Shuningdek, dekoratsiya, rang, yorug'lik va sahna makoni tushunchalarining teatr san'atidagi funksional vazifalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: teatr, sahna bezagi, dekoratsiya, badiiy makon, rejissorlik konsepsiyasi, spektakl estetikasi.

THE THEATRICAL STAGE AS A PLACE OF ARTISTIC THINKING AND DRAMATURGICAL HARMONY

Abstract. This article will scientifically-theoretically analyze the role of theatrical stage decoration in the artistic-aesthetic and dramaturgical process, its importance in revealing the content of the performance. Stage decoration is studied in close connection with the ideological direction of the performance, the system of images and the concept of directing. Also, the functional tasks of the concepts of decor, color, light and stage space in the theater arts are illuminated.

Keywords: theater, stage decoration, decor, artistic space, directing concept, performance aesthetics.

Teatr san'ati sintez san'at turi bo'lib, unda dramaturgiya, aktyorlik ijrosi, rejissura, musiqa va tasviriy san'at uyg'unlashadi. Sahna bezagi aynan tasviriy san'at bilan teatr o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. U spektaklning nafaqat

tashqi ko'rinishini, balki ichki mazmunini ham ifodalovchi badiiy tizimdir. Nazariy jihatdan sahna bezagi badiiy makon tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Badiiy makon – bu real voqelikning sahnaviy talqini bo'lib, u tomoshabin idrokida dramatik voqealarning mantiqiy va estetik muhitini yaratadi. Shu bois sahna bezagi teatr tilining mustaqil ifoda vositasi sifatida qaraladi. “O'zbekiston teatr bezagi san'ati, teatr san'atining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u uzoq izlanish davridan, ya'ni rasmlı (rangtasvirli) dekoratsiyadan to zamonaviy-xarakatli, konstruktiv teatr dekoratsiyasigacha bo'lgan davrni bosib o'tdi” [1].

Teatr san'atida sahna bezagi tomoshabinga asar mazmunini yetkazishda muhim estetik va semantik vazifani bajaradi. Sahna bezagi nafaqat vizual ko'rinish, balki dramatik harakatning badiiy muhiti sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy teatrdan sahna bezagi tomoshabinning tasavvurini shakllantiruvchi, spektakl g'oyasini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu maqolada sahna bezagining nazariy asoslari va badiiy imkoniyatlari ilmiy tahlil qilishga harakat qildik.

1. Sahna bezagi tushunchasi va uning teatr san'atidagi o'rni. Sahna bezagi (dekoratsiya) – bu spektakl voqealari sodir bo'ladigan badiiy makonni yaratish vositasi bo'lib, u tomoshabin ongida asar muhiti, davri va kayfiyatini shakllantiradi. San'atshunoslik nuqtayi nazaridan sahna bezagi dramatik harakatning vizual ifodasidir. Teatrshunos P. Pavis ta'kidlaganidek: “Sahna bezagi – bu faqat fon emas, balki dramatik harakatni yo'naltiruvchi faol komponentdir.” Ushbu fikr sahna bezagining passiv bezak emas, balki spektaklning faol ishtirokchisi ekanini ko'rsatadi.

2. Sahna bezagi va dramaturgik makon. Dramaturgik makon – bu voqea kechadigan joyning badiiy talqini bo'lib, sahna bezagi orqali ifodalanadi. Dekoratsiya dramaturgik vaziyatga mos holda statik yoki dinamik shaklga ega bo'lishi mumkin. Masalan, minimalistik sahna bezagi psixologik dramalarda ichki kechinmalarni kuchaytirsa, monumental dekoratsiya tarixiy spektakllarda davr

ruhini aks ettiradi. Shu jihatdan sahna bezagi dramaturgiyaning g'oyaviy yo'nalishini ochib beruvchi muhim vositadir.

3. Teatr san'ati sintez san'at turi bo'lib, unda dramaturgiya, aktyorlik ijrosi, rejissura, musiqa va tasviriy san'at uyg'unlashadi. Sahna bezagi aynan tasviriy san'at bilan teatr o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. U spektaklning nafaqat tashqi ko'rinishini, balki ichki mazmunini ham ifodalovchi badiiy tizimdir. Nazariy jihatdan sahna bezagi badiiy makon tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Badiiy makon – bu real voqelikning sahnaviy talqini bo'lib, u tomoshabin idrokida dramatik voqealarning mantiqiy va estetik muhitini yaratadi. Shu bois sahna bezagi teatr tilining mustaqil ifoda vositasi sifatida qaraladi. “O'zbekiston teatr bezagi san'ati, teatr san'atining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u uzoq izlanish davridan, ya'ni rasmlı (rangtasvirli) dekoratsiyadan to zamonaviy-xarakatli, konstruktiv teatr dekoratsiyasigacha bo'lgan davrni bosib o'tdi” [2].

Teatr san'atida sahna bezagi tomoshabinga asar mazmunini yetkazishda muhim estetik va semantik vazifani bajaradi. Sahna bezagi nafaqat vizual ko'rinish, balki dramatik harakatning badiiy muhiti sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy teatrdan sahna bezagi tomoshabinning tasavvurini shakllantiruvchi, spektakl g'oyasini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu maqolada sahna bezagining nazariy asoslari va badiiy imkoniyatlari ilmiy tahlil qilishga harakat qildik.

1. Sahna bezagi tushunchasi va uning teatr san'atidagi o'rni. Sahna bezagi (dekoratsiya) – bu spektakl voqealari sodir bo'ladigan badiiy makonni yaratish vositasi bo'lib, u tomoshabin ongida asar muhiti, davri va kayfiyatini shakllantiradi. San'atshunoslik nuqtayi nazaridan sahna bezagi dramatik harakatning vizual ifodasidir. Teatrshunos P. Pavis ta'kidlaganidek: “Sahna bezagi – bu faqat fon emas, balki dramatik harakatni yo'naltiruvchi faol komponentdir.” Ushbu fikr sahna bezagining passiv bezak emas, balki spektaklning faol ishtirokchisi ekanini ko'rsatadi.

2. Sahna bezagi va dramaturgik makon. Dramaturgik makon – bu voqea kechadigan joyning badiiy talqini bo'lib, sahna bezagi orqali ifodalanadi. Dekoratsiya dramaturgik vaziyatga mos holda statik yoki dinamik shaklga ega bo'lishi mumkin. Masalan, minimalistik sahna bezagi psixologik dramalarda ichki kechinmalarni kuchaytirsa, monumental dekoratsiya tarixiy spektakllarda davr ruhini aks ettiradi. Shu jihatdan sahna bezagi dramaturgiyaning g'oyaviy yo'nalishini ochib beruvchi muhim vositadir. Rang sahna bezagining asosiy ekspressiv vositalaridan biridir. Rangshunoslik nazariyasiga ko'ra, har bir rang psixologik va emotsional ta'sirga ega. Qizil rang – ziddiyat, ehtiros, xavf; ko'k rang – sokinlik, sovuqqonlik, ichki iztirob; oq rang – poklik, bo'shliq yoki ramziy sukunat; qora rang – fojia, zulmat, ichki bosimni ifodalaydi. Sahna bezagida ranglar dramaturgik vazifaga bo'ysundiriladi va spektaklning umumiy ritmi hamda emosional fonini belgilaydi.

3. Yorug'lik – sahna bezagining dinamik omili. Teatrshunoslikda yorug'lik sahna bezagining dinamik komponenti sifatida qaraladi. Agar dekoratsiya statik bo'lsa, yorug'lik uni jonlantiradi, o'zgaruvchan ma'no yuklaydi. Yorug'lik yordamida sahna makoni kengaytiriladi yoki toraytiriladi; asosiy dramatik nuqta ajratib ko'rsatiladi; vaqt va kayfiyat almashuvi ifodalanadi. “Yorug'lik proeksiyalarini qo'llashda yorug'lik spektrlari hamda uning badiiy jihatlari keragicha boyitib boriladi va bunda yorug'likning roli juda kattadir. Qachonki yorug'lik markaziy boshqaruv tizimi orqali boshqarib borilgandagina sahnalashtirilayotgan asar yuqori darajadagi asarga aylanishi mumkin” [3]. Yorug'lik sahna bezagini vaqt o'lchovi bilan boyitadi va spektakl ritmini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, teatr sahna bezagi spektaklning badiiy-estetik qiymatini belgilovchi muhim komponent hisoblanadi. U dramaturgiya, rejissura va aktyorlik ijrosi bilan uzviy bog'liq holda yagona badiiy tizimni shakllantiradi. Sahna bezagi orqali tomoshabin asar muhiti, g'oyasi va obrazlar ruhiyatini chuqurroq anglaydi. Zamonaviy teatr amaliyotida sahna bezagining funksional va ramziy imkoniyatlaridan samarali foydalanish spektakl ta'sirchanligini oshirishga xizmat

qiladi. Shu sababli sahna bezagini faqat bezak sifatida emas, balki teatr tafakkurining muhim nazariy kategoriyasi sifatida o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdumalikov Sh. *Teatr sahna bezagi. Magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma.* – Toshkent: O'zDSMI, 2005. – 180 b.
2. Ibrohimov B. *Teatr maketi.* – Toshkent: Istiqlol, 2009. – 62 b.
3. Aminov X., Yusupov O. *Yorug'lik manbalari va yoritish uskunalari.* – Toshkent: Noshir, 2013. – 120 b.